LOTIN TILIDA FARMOKOLOGIK VOSITALAR NOMLANISHINING LINGVISTIK TAHLILI

Xamdamova Muqaddas Xamidovna

Samarqand Davlat tibbiyot universiteti tillar kafedrasi stajyor assistenti,

Annotatsiya. Bu maqolada lotin tilida farmokologik vositalar nomlanishining lingvistik tahlili talabalariga farmokologik termin sifatida tibbiyot sohasida qo‘llanilishini xususan, og‘zaki va yozma nutqda oson hamda qulay ishlatishni o‘rganishlari uchun kichik metodik ishlanma hisoblanadi, farmakologik vositalar nomlanishining lotin tilidagi lingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Dorilar nomlarining etimologiyasi, morfologik tuzilishi, semantik motivatsiyasi hamda yunon–lotin elementlarining o‘zaro aloqasi yoritiladi. Tadqiqot natijalari tibbiy terminologiyani o‘rganish va o‘qitishda lingvistik yondashuvning ahamiyatini ko‘rsatadi.Bu yerda keltirilgan ma’lumotlar orqali tinglovchilarga farmokologik terminlar qanday nomlanishi va ularning tarkibidagi ma’noli qismlarni qanday aniqlashni izohlaydi.

Kalit so‘zlar: farmakologik terminlar, lotin tili, lingvistik tahlil, etimologiya, morfologiya, semantika, leksik minimum, fonetika, trivial nom, ilmiy nom, asos, suffiks, old qo‘shimcha, tibbiyot, grammatik fragmentlar, atama element va klinik terminlar.

Аннотация. В данной статье проводится лингвистический анализ наименований фармакологических средств на латинском языке. Она предназначена как небольшая методическая разработка для студентов, чтобы они могли использовать фармакологические термины в медицине, особенно в устной и письменной речи, легко и удобно. Анализируются лингвистические особенности латинских наименований лекарственных средств. Освещаются этимология названий лекарств, их морфологическая структура, семантическая мотивированность, а также взаимосвязь греко-латинских элементов. Результаты исследования демонстрируют значимость лингвистического подхода при изучении и преподавании медицинской терминологии. На основе приведенной информации слушателям объясняется, как формируются фармакологические термины и как выявлять смысловые элементы в их составе.

Ключевые слова: фармакологические термины, латинский язык, лингвистический анализ, этимология, морфология, семантика, лексический минимум, фонетика, тривиальное название, научное название, основа, суффикс, префикс, медицина, грамматические фрагменты, элементы термина, клинические термины.

ISSN 3030-3907

Abstract. This article presents a linguistic analysis of the names of pharmacological agents in Latin. It serves as a small methodological guide for students to facilitate the use of pharmacological terms in medicine, particularly in oral and written communication, in an easy and convenient way. The linguistic features of Latin drug names are analyzed. The etymology of drug names, their morphological structure, semantic motivation, and the interaction of Greek–Latin elements are highlighted. The research results demonstrate the importance of a linguistic approach in the study and teaching of medical terminology. Based on the presented information, students are explained how pharmacological terms are formed and how to identify the meaningful components within them.

Keywords: pharmacological terms, Latin language, linguistic analysis, etymology, morphology, semantics, lexical minimum, phonetics, trivial name, scientific name, stem, suffix, prefix, medicine, grammatical fragments, term elements, clinical terminology.

KIRISH

Hozirgi kunda jamiyatning istalgan sohasida bilimli,yuqori salohiyatga ega bo‘lgan zukko, o‘zining mutaxassisligi bo‘yicha xorijiy tillarda erkin faoliyat yurita oladigan malakali kadrlarga nafaqat bizning yurtimiz balki butun dunyo mamlakatlari mana shunday mutaxassislarga ehtiyoji yuqori ekanligi kundan kunga ortib bormoqda. Xususan, dunyo tan olgan xorijiy tillarni o‘rgangan holda, tibbiyot yo‘nalishlari bo‘yicha lotin tilida o‘simliklarning botanik va farmokologik nomlanishini bilish bugungi kunda dolzarb asosiy fragmentlardan biri bo‘lib bormoqda. Chunki bunday ustunlik va imkoniyatlarga ega bo‘lgan kadrlar o‘z yurtida hamda dunyo bo‘ylab samarali tajriba almashinib, kasbiy barkamollikka erishishi mumkin. Lotin tili asrlar davomida tibbiyot va farmakologiyaning xalqaro tili sifatida shakllangan. Dorivor vositalarning nomlanishida lotin tili nafaqat tarixiy an’ana, balki terminologik aniqlik va universallikni ta’minlovchi vosita bo‘lib xizmat qiladi. Farmakologik nomlarning lingvistik tahlili ularning ma’nosini to‘g‘ri anglash, yodda saqlash va amaliyotda to‘g‘ri qo‘llashga yordam beradi.

ASOSIY QISIM: Dorivor vositalarning nomeklaturasi bu hozirgi davrda o‘llanilayotgan barcha dorivor vositalar nomining yig‘indisidir. **Dorivor vosita** (medicamentum, remedium) bu odam va hayvonlarning kasalliklarini davolash, oldini olish yoki aniqlash maqsadida ishlatish uchun ruxsat etilgan farmakologik vositadir. **Dorivor modda** (materia medica, substantia pharmaceutica) bu alohida kimyoviy birikmadan yoki biologik moddadan iborat bo‘lgan dorivor vositadir. **Dorivor o‘simliklar xom ashyosi** bu davolash maqsadida qo‘llash uchun ruxsat etilgan o‘simliklar xomashyosi. **Dori preparati** (praeparatum) bu ma’lum dori shaklidagi dorivor vositadir. **Murakkab dori vositasi** bu bir dori shaklida

ISSN 3030-3907

belgilangan dozalarda birdan ortiq ta’sir etuvchi moddalarga ega bo‘lgan dorivor vositasidir. **Dorivor vositalar nomenklaturasi (D.V.N.)** - bu hozirgi vaqtda ishlatishga ruxsat berilgan hamma dorivor vositalar nomining yig‘indisidir. Dorivor vositalarning hozirgi zamon nomenklaturasi tabiiy paydo bo‘lgan va qat’iy tuzilish qoidasiga ega emas. Har bir dorivor vosita ma’lum bir nomlanishga ega bo‘ladi. Nomlar esa ixtiyoriy ravishda o‘ylab chiqariladi. Dorivor vositalar nomenklaturasiga vatanimizda ishlab chiqarilgan vositalar nomi bilan birga chet eldan keltirilgan vositalarning nomi ham kiradi. Dorivor vositalar sifatida qo‘llaniladigan organik kimyoviy moddalar ikkita nomga ega: ilmiy/sistematik (tizimli)/ va trivial/shartli (odatdagi)/. “Trivial” so‘zi lotincha – “trivialis” odatdagi, oddiy so‘zidan kelib chiqqan. Ilmiy nom dorivor moddalarning kimyoviy tarkibini ifodalaydi. Shifokorlar va farmatsevtlar ilmiy nomni bilishlari zarur. Lekin ilmiy nomlar uzun, o‘qilishi qiyin bo‘lganligi sababli ularni tibbiyotda ishlatish noqulaylik tug‘diradi. Shuning uchun ko‘pincha, dorivor vositalarning ilmiy emas balki trivial nomlari qo‘llaniladi.

Misol uchun:

Ilmiy nomlanishi	Trivial nomlanishi
1. Fenil 2, 3-dimetil, 4. Metilamina pirazolon-5-N-metasulfanat natriy	Analginum
Trans-9, 13-dimet -71, 1, 5- trimetilsiklogeksin -5 -6 -nonatetrain-7, 9, 11, 13	Retinolum /Vitamin A

Dorivor preparatlarning trivial nomlarini nomeklatura komissiyasi beradi. Bunday nomlar quyidagi talablarga to‘g‘ri kelishi maqsadga muvofiq hisoblanadi: qisqalik, talaffuz osonligi, berilgan nomlarning boshqalardan fonetik farqlanishi bilan trivial nomlar to‘g‘ri belgilarni ifodalaydi: kimyoviy tarkibini, farmokologik guruhga mansubligini, davolash ta’sirini va hokazolarni. Trivial nomlar quyidagi usullar bilan farqlanadi: bitta asosga ega bo‘lgan hamda ikkita va undan ortiq asosga ega nomlar. Bitta asosga ega bo‘lgan nomlarni –in+um yoki –ol+um suffikslarini qo‘shish bilan hosil qilish mumkin.

Misol uchun:

Streptomycinum /asos/ Streptomyc, -in+um suffiks/

Mentholum /asos/ Mentha -/yalpiz/ -ol+um suffiks/

Perefeksli - suffiksli usulda asosga perefiks /old so‘z yasovchi qo‘shimcha/ va suffiks /orqa so‘z yasovchi qo‘shimcha/ qo‘yiladi. Misol uchun:

Anti+febr+inum, Anti+strum+inum,

anti -(qarshi) -old qo‘shimcha, -in+um suffiks

febris, is, f -isitma ko‘tarilishi

ISSN 3030-3907

Ikkita va undan ortiq asosga ega bo‘lgan nomlar quyidagi usullar bilan hosil bo‘lishi mumkin. Qo‘shish: bu usulda asoslar interfiks /birlashtiruvchi unli/ yordamida yoki unlisiz birlashadi.

Misol uchun:

Haematogenum -gematogen

Haemat+o+gen paydo bo‘lishi, rivojlanish

“Abreviatsiya” usulida (ya’ni qisqartirish so‘zi lotincha “brevis” kalta so‘zidan olingan). Bu usul bilan so‘zlardan ajratib olingan ma’noli bo‘laklarning qo‘shilishidan qisqartirilgan murakkab so‘zlar hosil bo‘ladi. Bunday so‘zlar abbreviatura deb ataladi.

Misol uchun:

Analphenum -tugmachasimon dorining nomi

Analginum dan -anal qismi, va Phenacetinum dan -phen olingan.

Dorivor vositalarning nomlanishida abbreviatura keng qo‘llaniladi. Dori nomlari hamisha bosh harf bilan yoziladi, lug‘at shakli anatomik terminlar kabi bo‘ladi.

Misol uchun:

Novocainum, i, n –novokain; Aspyrinum, i, n –aspirin;

XULOSA. Shakllanayotgan shifokorlarning terminologik tayyorgarligi nafaqat terminologiyani tushunish, balki undan faol foydalanishning amaliy ko‘nikmalarini ham o‘z ichiga oladi. Lotin tili zamonaviy dunyoda xususan tibbiyot sohasida muhim madaniy hodisa bo‘lib qolmoqda. Bu o‘lik til bo‘sada insoniyat faoliyatining ko‘plab sohalarini o‘z ichiga qamrab olgan. dunyo tan olgan xorijiy tillarni o‘rgangan holda, tibbiyot yo‘nalishlari bo‘yicha lotin tilida o‘simliklarning botanik va farmokologik nomlanishini bilish bugungi kunda dolzarb asosiy fragmentlardan biri bo‘lib bormoqda. Chunki bunday ustunlik va imkoniyatlarga ega bo‘lgan kadrlar o‘z yurtida hamda dunyo bo‘ylab samarali tajriba almashinib, kasbiy barkamollikka erishishi mumkin.. Dorivor vositalarning nomlanishida lotin tili nafaqat tarixiy an’ana, balki terminologik aniqlik va universallikni ta’minlovchi vosita bo‘lib xizmat qiladi. Farmakologik nomlarning lingvistik tahlili ularning ma’nosini to‘g‘ri anglash, yodda saqlash va amaliyotda to‘g‘ri qo‘llashga yordam beradi. Tibbiyotda lotin tili an'anaviy ravishda anatomik, klinik va farmatsevtik terminologiyada qo‘llaniladi. Lotin tilini bilish dunyoning turli mamlakatlaridagi shifokorlarga bir-birlarini to‘laqonli tushunish imkonini beradi va tibbiy ta'limni birlashtirish uchun birlashtiruvchi omil bo‘lib xizmat qiladi

ISSN 3030-3907

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yorova, S., & Hasanova, F. (2024). Tibbiy diskursga xos bo ‘lgan kasbiy va kommunikativ kompetensiya. Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления, 1(8), 68-71.
2. Айтмуратова, П. Г. (2022). Важность обучения латинскому языку в медицинских вузах. Science and Education, 3(12), 897-902.
3. Айтмуратова, П. Г. (2024). I-III Склонения имён существительных в латинском языке. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 22(5), 37-42.
4. Mallaevna, N. S. (2024). The social and cultural importance of the latin language and its present and historical landscape. Central Asian Journal of Academic Research, 2(5), 51-55.
5. Alisherovna, A. U. (2023). Discourse in modern linguistics. Journal of new century innovations, 26(5), 123-128.
6. Alisherovna, A. U., & Uves, S. (2023, November). Clinical terminology: understanding word-formation, greek roots, suffixes, and prefixes. In International conference on multidisciplinary science (Vol. 1, No. 5, pp. 206-209).
7. Mardanovich, M. Z., & Mokhigul, O. (2024). Personality in teaching the module of latin and medical terminology in the medical higher education institution. Journal of Universal Science Research, 2(1), 425-435.
8. Mardanovich, M. Z. (2023). Lotin tilining zamonaviy tillarga bevosita va bilvosita ta’siri. Research Focus International Scientific Journal, 2(6), 132-136.
9. Aminovna, Y. D., Ubaydullayevich, F. F., & Tog‘aymurodovich, R. J. (2020). The development of speech activity in students. International Journal on Integrated Education, 2(4), 95-97.
10. Fayzullaev, F. U. "The Role of Critical Thinking in Learning a Foreign Language." JournalNX, vol. 7, no. 1, 2021, pp. 68-70.
11. Beknazarova, M. K. (2022). The most important criteria for evaluating student knowledge. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(11), 35-37.
12. Beknazarova, M. K. (2022). Lotin tilini o‘qitish jarayonida klinik kafedralar bilan integratsiyalashtirilgan mashg‘ulotlarning maqsadli yo‘naltirilishidagi natijalar. Science and Education, 3(11), 653-656.

ISSN 3030-3907